KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
ISSN: 2181-1695 **OAK:** 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

SEGMENTAR HISOBOT MA’LUMOTLARI ASOSIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH, TAHLIL QILISH VA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH METODIKASI

Uchqun Abduxalilovich Shirinov,
Samarqand iqtisodiyot va servis institutining,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
u_shirinov@mail.ru
https://orcid.org/0000-0003-2146-9484
DOI: https://doi.org/10.54613/1dbezw83

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ
Qabul qilindi: 2-oktabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 5-oktabr 2026-yil
Jurnal soni: 19-B
Maqola raqami: 32

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
segmentar hisobot, segment samaradorligi, segment daromadi, segment xarajatlari, segment foydasi, segment aktivlari, foyda marjasi, aktivlar rentabelligi, aktivlar aylanuvchanligi

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ
Mazkur maqolada segmentar hisobot ma’lumotlari asosida korxona faoliyati samaradorligini baholash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish metodikasi tadqiq etilgan. Segmentlar kesimida shakllantiriladigan moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning boshqaruv axboroti sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Segmentar hisobot ma’lumotlarini tizimlashtirish, guruhlash, taqqoslash va iqtisodiy tahlil qilish orqali alohida faoliyat yo‘nalishlarining rentabelligi, daromadliligi, xarajatlari va moliyaviy natijalarini aniqlash yondashuvlari taklif etilgan. Shuningdek, segmentlar faoliyatini baholashda nisbiy va mutlaq ko‘rsatkichlardan foydalanish, samaradorlikni kompleks baholash hamda aniqlangan natijalar asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirish bosqichlari asoslangan. Tadqiqot natijalari segmentlar bo‘yicha resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, muammoli yo‘nalishlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER
Accepted: 2 October 2026
Approved: 5 October 2026
Volume: 19-B
Paper number: 32

KEYWORDS
segmental reporting, segment performance, segment revenue, segment expenses, segment profit, segment assets, profit margin, return on assets, asset turnover

ANNOTATION
This article examines a methodology for evaluating operational efficiency, analyzing performance, and making management decisions based on segment reporting data. The study highlights the importance of financial and economic indicators generated by individual business segments as a source of management information. Approaches to systematizing, grouping, comparing, and analyzing segment reporting data are proposed to determine the profitability, revenues, costs, and financial results of individual business activities. The study substantiates the stages of using absolute and relative indicators to assess segment performance, conduct a comprehensive evaluation, and develop management decisions based on the results obtained. The findings contribute to improving resource utilization efficiency across business segments, identifying problematic areas of activity, and strengthening the economic rationale behind management decisions.

Kirish

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisobot ma’lumotlaridan samarali foydalanish alohida segmentlarning moliyaviy holati va faoliyat natijalarini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim axborot asosini tashkil etadi. Tashkilotning umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlari alohida faoliyat yo‘nalishlari, hududlar, mahsulot va xizmatlarning umumiy natijaga qo‘shgan hissasini to‘liq ifodalamaydi. Shu sababli segmentlar kesimida daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar, aktivlar, majburiyatlar, pul oqimlari va boshqa moliyaviy hamda moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlarni tizimli tahlil qilish zarur. Bunday tahlil har bir segmentning daromad yaratish salohiyati, xarajatlar samaradorligi, rentabelligi va iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Segmentlar samaradorligini baholashda faqat mutlaq moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanish yetarli emas. Shu bois segment foyda marjasi, aktivlar rentabelligi, xarajatlar samaradorligi, daromadlarning o‘sish sur’ati, aktivlar aylanuvchanligi, reja va haqiqiy natijalar o‘rtasidagi chetlanishlar kabi nisbiy ko‘rsatkichlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. Moliyaviy ko‘rsatkichlarni xizmat sifati, mijozlar qoniqishi, mehnat unumdorligi va boshqa moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlar bilan uyg‘unlashtirish segment faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni yanada chuqurroq aniqlash imkonini beradi. Natijada samaradorligi yuqori, barqaror va rivojlanish imkoniyatiga ega segmentlar bilan bir qatorda, xarajatlari yuqori yoki rentabelligi past segmentlarni ham o‘z vaqtida aniqlash mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Segmentar hisobot ma’lumotlaridan samaradorlikni baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish masalasi boshqaruv hisobi hamda moliyaviy tahlil sohasidagi tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. L.M. Walther segmentni alohida moliyaviy axborot shakllantiriladigan va rahbariyat tomonidan faoliyat samaradorligi baholanadigan mustaqil biznes birligi sifatida qaraydi. Uning fikricha, segmentar ko‘rsatkichlar resurslarni taqsimlash va segment rahbarlari faoliyatini baholashga xizmat qilishi kerak [1].

L. Hinson segmentar hisobotning boshqaruv yondashuvi asosida shakllantirilishi axborotning qaror qabul qilishdagi ahamiyatini oshirishini ta’kidlaydi. Biroq segmentlar kesimida foyda ko‘rsatkichlarini turlicha hisoblash ularning o‘zaro taqqoslanuvchanligini pasaytirishi mumkin [2]. J.W. Tucker ham segmentar ma’lumotlarning foydaliligini baholashda axborotning dolzarbligi bilan bir qatorda segmentlararo taqqoslanuvchanlikni saqlash zarurligini asoslaydi [3].

D. Weng segmentar hisobot samaradorligini baholashda boshqaruv yondashuvining afzalliklarini

o‘rganib, ichki boshqaruvda qo‘llaniladigan segment ko‘rsatkichlarining tashqi hisobotda aks ettirilishi tashkilot faoliyatini real boshqaruv nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkoniyatini oshirishini ko‘rsatadi [4]. Shu bilan birga, muallif segmentlar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlarni qiyoslash imkoniyati pasaymasligi kerakligini ta’kidlaydi.

M.T. Durney segment foydasi yoki zararini samaradorlikni baholash va resurslarni taqsimlash bilan bog‘liq muhim ko‘rsatkich sifatida tadqiq etadi. Muallifning fikricha, segment foydasini baholashda barqaror daromad elementlariga alohida e’tibor berish kelgusidagi faoliyat natijalarini prognozlash imkoniyatini oshiradi [5].

C. Botosan segmentar axborotning investorlar va tahlilchilar uchun ahamiyatini o‘rganib, tashkilotning umumiy ko‘rsatkichlari bilan cheklanib qolish alohida biznes yo‘nalishlarining haqiqiy samaradorligini aniqlash imkoniyatini kamaytirishini ta’kidlaydi [6]. Segmentlar kesimida batafsil axborot mavjudligi foydalanuvchilarga faoliyat natijalari va kelajakdagi pul oqimlarini aniqroq baholash imkonini beradi.

R.N. Hann segmentlar bo‘yicha foydalilik haqidagi axborotni oshkor qilish tashkilotning alohida faoliyat yo‘nalishlari samaradorligini baholash imkoniyatlarini kengaytirishini asoslaydi. Uning tadqiqotlaridan kelib chiqib, segment foydasi va uning o‘zgarishini tahlil qilish resurslarni samarali hamda samarasiz yo‘nalishlar o‘rtasida qayta taqsimlash uchun muhim axborot manbai hisoblanadi [7].

C. Drury boshqaruv hisobida segment va javobgarlik markazlari faoliyatini baholashda investitsiyalar rentabelligi, qoldiq foyda, xarajatlar va budjet chetlanishlari kabi ko‘rsatkichlarni birgalikda qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi [8]. Uning yondashuvi segment samaradorligini faqat foyda miqdori asosida emas, balki ushbu foydani yaratishda foydalanilgan resurslarni ham hisobga olgan holda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

R.S. Kaplan tashkilot bo‘linmalari samaradorligini baholashda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanishni yetarli deb hisoblamaydi. Uning fikricha, moliyaviy natijalarni mijozlar, ichki jarayonlar, o‘rganish va rivojlanish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar bilan uyg‘unlashtirish boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi [9]. Mazkur yondashuv segmentar tahlilda moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlarni yagona tizimda baholash zarurligini asoslaydi.

D.P. Norton samaradorlik ko‘rsatkichlari tashkilot strategiyasi bilan bog‘langan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, har bir segment uchun maqsadli ko‘rsatkichlar belgilanib, haqiqiy natijalar ular bilan taqqoslanishi va aniqlangan chetlanishlar asosida boshqaruv choralari ishlab chiqilishi kerak [10]. Bu segmentar hisobot ma’lumotlarini oddiy axborot manbaidan strategik boshqaruv vositasiga aylantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlilini umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, olimlar segmentlar samaradorligini baholashda daromad va foyda bilan cheklanmasdan, rentabellik, aktivlardan foydalanish samaradorligi, qoldiq foyda, budjet chetlanishlari hamda moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlardan kompleks foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda segmentar hisobot ma’lumotlari asosida samaradorlikni baholash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini o‘rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy va omilli tahlil, guruhlash, umumlashtirish hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Segmentlar kesimida daromad, xarajat, foyda, rentabellik va resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari baholanib, reja va haqiqiy natijalar o‘rtasidagi chetlanishlarni aniqlash asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirishning uslubiy yondashuvi ishlab chiqildi.

Natijalar

Segmentar hisobot ma’lumotlari asosida segmentlar faoliyati samaradorligini kompleks baholash uchun mutlaq va nisbiy, dinamik hamda tarkibiy ko‘rsatkichlardan o‘zaro bog‘liq holda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda segment daromadi, xarajatlari, foydasi va aktivlari kabi mutlaq ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, daromad va foydaning o‘sish sur’ati, foyda marjasi, aktivlar rentabelligi va aylanuvchanligi, xarajatlar rentabelligi, reja bajarilishi hamda chetlanish ko‘rsatkichlari segmentning iqtisodiy natijalarini turli jihatdan baholash imkonini beradi. Shuningdek, segmentning jami daromad, foyda va aktivlardagi ulushlarini o‘zaro taqqoslash asosida resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda bir nechta mezonlarni yagona integral samaradorlik indeksida umumlashtirish segmentlarni qiyosiy baholash imkoniyatini kengaytiradi. Shu asosda quyidagi jadvalda segmentlar faoliyatini daromadlilik, natijaviylik, rentabellik, resurslardan foydalanish, reja bajarilishi va kompleks samaradorlik yo‘nalishlarida baholash uchun taklif etilayotgan asosiy tahliliy ko‘rsatkichlar tizimlashtirilgan.

1-jadval

Segmentlar faoliyatini tahlil qilish va samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi[1]

№	Ko‘rsatkich	Iqtisodiy mazmuni	Tahliliy yo‘nalish
1	Segment daromadi	Segment tomonidan shakllantirilgan jami daromad	Daromadlilik
2	Daromadning o‘sish sur’ati	Segment daromadining oldingi davrga nisbatan o‘zgarishini ko‘rsatadi	Dinamik tahlil
3	Segmentning jami daromaddagi ulushi	Segmentning kompaniya daromadini shakllantirishdagi hissasini ifodalaydi	Tarkibiy tahlil
4	Segment xarajatlari	Segment faoliyatiga tegishli jami xarajatlarni ifodalaydi	Xarajatlar tahlili
5	Xarajatlar sig‘imi	100 so‘mlik daromad olish uchun qancha xarajat qilinganini ko‘rsatadi	Tejamkorlik
6	Segment foydasi (zarari)	Segment faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini ifodalaydi	Natijaviylik
7	Foydaning o‘sish sur’ati	Segment foydasining davrlar bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatadi	Dinamik tahlil
8	Segment foyda marjasi	Har 100 so‘mlik segment daromadiga to‘g‘ri keladigan foydani ko‘rsatadi	Rentabellik
9	Segmentning jami foydadagi ulushi	Segmentning kompaniya umumiy foydasiga qo‘shgan hissasini ifodalaydi	Tarkibiy tahlil
10	Segment aktivlari	Segment tasarrufidagi iqtisodiy resurslar qiymatini ko‘rsatadi	Resurs salohiyati
11	Segmentning jami aktivlardagi ulushi	Kompaniya aktivlarining qanchasi segmentga biriktirilganini ko‘rsatadi	Resurs taqsimoti
12	Aktivlar rentabelligi (ROA)	Segment aktivlaridan foyda olish samaradorligini ko‘rsatadi	Resurs samaradorligi
13	Aktivlar aylanuvchanligi	Aktivlarning daromad yaratish qobiliyatini ifodalaydi	Ish faolligi
14	Xarajatlar rentabelligi	Sarflangan xarajatlarning qancha foyda keltirganini ko‘rsatadi	Xarajat samaradorligi
15	Daromad–aktiv samaradorligi	Segmentga biriktirilgan aktivlarning daromad yaratish darajasini ko‘rsatadi	Resurs samaradorligi

[1] Muallif ishlanmasi

Mazkur ko‘rsatkichlar tizimida 1–3-ko‘rsatkichlar segmentning bozor va daromad yaratish salohiyatini, 4–9-ko‘rsatkichlar moliyaviy natijaviyligini, 10–15-ko‘rsatkichlar resurslardan foydalanish samaradorligini, 16–17-ko‘rsatkichlar reja ko‘rsatkichlarining bajarilishini, 18–20-ko‘rsatkichlar esa segmentning nisbiy va kompleks samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Shu sababli alohida ko‘rsatkich bo‘yicha xulosa chiqarishdan ko‘ra, ularni o‘zaro bog‘langan tizim sifatida qo‘llash segment faoliyatining haqiqiy iqtisodiy holatini aniqroq ifodalaydi.

Segment daromadini davrlar va segmentlar kesimida taqqoslash segmentning iqtisodiy faolligi, daromad bazasining kengayishi yoki qisqarishi hamda uning kompaniya faoliyatidagi ahamiyatini baholash imkonini beradi.

Segment daromadini aniqlash formulasi:

$$SD_i = TD_i + SID_i + BD_i$$

bu yerda: SD_i - i-segmentning jami daromadi; TD_i - tashqi mijozlardan olingan daromad; SID_i - segmentlararo operatsiyalardan olingan daromad; BD_i - segmentga tegishli boshqa daromadlar.

Agar tahlil konsolidatsiyalashgan darajada amalga oshirilsa, segmentlararo daromadlar eliminatsiya qilinadi:

$$SD_{kons} = \sum_{i=1}^{n} SD_i - \sum SID_i$$

ya’ni segmentlar daromadlari yig‘indisidan guruh ichidagi segmentlararo operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan daromadlar chiqarib tashlanadi.

Segment xarajatlari muayyan segment faoliyatini amalga oshirish, daromadlarni shakllantirish va segmentning uzluksiz faoliyatini ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlarning jami qiymatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichdir. Ushbu ko‘rsatkich segmentning resurslardan foydalanish darajasi, xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijani shakllantirishdagi xarajat yukini baholashda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Sug‘urta kompaniyasining hududiy segmentlari kesimida segment xarajatlariga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq xarajatlar, sug‘urta hodisalari bo‘yicha tegishli xarajatlar, xodimlar mehnatiga haq to‘lash, agentlik va vositachilik xarajatlari, ma’muriy-boshqaruv xarajatlari, asosiy vositalar amortizatsiyasi hamda segmentga asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlangan umumiy xarajatlar kiritilishi mumkin. Segment xarajatlarini daromad, foyda va aktivlar ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, ortiqcha sarflarni aniqlash, segmentlar o‘rtasidagi xarajatlar farqining sabablarini baholash hamda xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Segment xarajatlarini aniqlash formulasi:

$$\mathbf{SX_i = BX_i + TX_i + UX_i + BSX_i}$$

bu yerda: SX_i - i-segmentning jami xarajatlari;

BX_i - segmentga bevosita tegishli xarajatlar;

TX_i - umumiy xarajatlarning segmentga taqsimlangan qismi;

UX_i - segmentlararo operatsiyalar bilan bog‘liq ichki xarajatlar;

BSX_i - segment faoliyatiga tegishli boshqa xarajatlar.

Agar segment foydasi va daromadi ma’lum bo‘lsa, soddalashtirilgan holda segment xarajatlari quyidagicha ham aniqlanishi mumkin:

$$\mathbf{SX_i = SD_i + SF_i}$$

bu yerda SD_i - segment daromadi, SF_i - segment foydasi. Ushbu ikkinchi formula faqat daromad va foyda ko‘rsatkichlari bir xil hisoblash bazasida shakllantirilgan holatda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Segmentar hisobot ma’lumotlari asosida alohida segmentlar faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy natijalar, daromadlilik, xarajatlar, aktivlardan foydalanish darajasi hamda reja ko‘rsatkichlarining bajarilishini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda faqat segment tomonidan olingan foydaning mutlaq miqdoriga asoslanish uning haqiqiy samaradorligini to‘liq ifodalamaydi, chunki segmentlarning faoliyat ko‘lami, daromad hajmi va ularga biriktirilgan aktivlar miqdori bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Shu bois tadqiqotimizda segmentlar faoliyatini kompleks baholash maqsadida foyda marjasi, jami foyda va aktivlardagi ulush, aktivlar rentabelligi va aylanuvchanligi, xarajatlar rentabelligi, reja bajarilishi hamda nisbiy va integral samaradorlik ko‘rsatkichlaridan iborat tizimlashtirilgan tahliliy ko‘rsatkichlar majmuasi taklif etildi. Mazkur ko‘rsatkichlarning hisoblash tartibi va formulalarda foydalanilgan belgilarning mazmuni quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Segmentlar samaradorligini tahlil qilish ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash formulalari[2]

Ko‘rsatkich	Hisoblash formulasi	Formuladagi belgilarning mazmuni
Segment foyda marjasi	$SFM_i=\frac{Fi}{Di}\times100$	SFM_i - segment foyda marjasi, %; F_i - i-segment foydasi; D_i - i-segment daromadi
Segmentning jami foydadagi ulushi	$SFU_i=\frac{Fi}{\sum_{i=1}^{n}Fi}\times100$	SFU_i — segmentning jami foydadagi ulushi, %; F_i - i-segment foydasi; $\sum F_i$ - barcha segmentlarning jami foydasi; n - segmentlar soni
Segment aktivlari	$SA_i=BA_i+TA_i$	SA_i - i-segment aktivlari; BA_i - segmentga bevosita biriktirilgan aktivlar; TAi - segmentga asoslangan mezon bo‘yicha taqsimlangan aktivlar
Segmentning jami aktivlardagi ulushi	$SAU_i=\frac{Ai}{\sum_{i=1}^{n}Ai}\times100$	SAUi - segmentning jami aktivlardagi ulushi, %; A_i - i-segment aktivlari; $\sum A_i$ - barcha segmentlarning jami aktivlari
Aktivlar rentabelligi (ROA)	$ROA_i=\frac{Fi}{Ai}\times100$	ROA_i - segment aktivlari rentabelligi, %; F_i - segment foydasi; A_i - segment aktivlarining qiymati
Aktivlar aylanuvchanligi	$AA_i=\frac{Di}{Ai}$	AA_i - aktivlar aylanuvchanligi, marta; D_i - segment daromadi; A_i - segment aktivlari
Xarajatlar rentabelligi	$XR_i=\frac{Fi}{Xi}\times100$	XR_i - xarajatlar rentabelligi, %; F_i - segment foydasi; X_i - segmentning jami xarajatlari
Daromad–aktiv samaradorligi	$DAS_i=\frac{Di}{Ai}\times100$	DAS_i - daromad–aktiv samaradorligi, %; D_i - segment daromadi; A_i - segment aktivlari
Reja bajarilish darajasi	$RBD_i=\frac{Hi}{Ri}\times100$	RBD_i - reja bajarilish darajasi, %; H_i - segment bo‘yicha haqiqiy natija; R_i - segment bo‘yicha rejalashtirilgan ko‘rsatkich
Rejadan mutlaq chetlanish	$\Delta R_i=H_t-R_i$	ΔR_i - rejadan mutlaq chetlanish; H_t - haqiqiy natija; R_i - reja ko‘rsatkichi

Biz tadqiqot obyektimiz hisoblangan “O‘zbekinvest EISK” AJning hududiy operatsion segmentlari faoliyatini baholashda segmentar tahlil ko‘rsatkichlari tizimidan foydalandik. Mazkur metodika asosida, avvalo, kompaniya faoliyatida iqtisodiy salmog‘i yuqori bo‘lgan Toshkent shahar filialining 2023–2025-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy

[2] Muallif ishlanmasi

ko‘rsatkichlari dinamik jihatdan tahlil qilindi. Toshkent shahar segmenti bo‘yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O‘zbekinvest EISK AJning Toshkent shahar operatsion segmentining moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili (2023–2025-yillar)[11]

№	Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
1	Segment daromadi, mln so‘m	42 500,00	49 132,13	79 255,88
2	Daromadning o‘sish sur’ati, %	118,5	115,61	161,31
3	Segmentning jami daromaddagi ulushi, %	20,73	20,47	27,98
4	Segment xarajatlari, mln so‘m	32 700,00	37 232,13	65 076,88
5	Xarajatlar sig‘imi, %	76,94	75,78	82,11
6	Segment foydasi, mln so‘m	9 800,00	11 900,00	14 179,00
7	Foydaning o‘sish sur’ati, %	115,5	121,43	119,15
8	Segment foyda marjasi, %	23,06	24,22	17,89
9	Segmentning jami foydadagi ulushi, %	30,63	34,00	35,87
10	Segment aktivlari, mln so‘m	5 100,00	5 850,00	6 628,69
11	Segmentning jami aktivlardagi ulushi, %	19,62	20,53	21,35
12	Aktivlar rentabelligi (ROA), %	192,16	203,42	213,90
13	Aktivlar aylanuvchanligi, marta	8,33	8,40	11,96
14	Xarajatlar rentabelligi, %	29,97	31,96	21,79
15	Daromad–aktiv samaradorligi, %	833,33	839,87	1 195,65
16	Reja bajarilish darajasi, %	94,44	94,48	105,67
17	Rejadan mutlaq chetlanish, mln so‘m	–2 500,00	–2 867,87	+4 255,88
18	Segment samaradorligi nisbati	1,56	1,66	1,68
19	Daromad samaradorligi nisbati	1,06	1,00	1,31
20	Integral samaradorlik indeksi, ball	85,61	88,88	92,71

Jadval ma’lumotlari Toshkent shahar segmentida 2023–2025-yillarda faoliyat ko‘lami sezilarli kengayganini ko‘rsatadi. Segment daromadi 42 500,00 mln so‘mdan 79 255,88 mln so‘mga, foydasi esa 9 800,00 mln so‘mdan 14 179,00 mln so‘mga oshgan. Biroq xarajatlarning tez o‘sishi natijasida foyda marjasi 24,22 foizdan 17,89 foizga, xarajatlar rentabelligi esa 31,96 foizdan 21,79 foizga pasaygan. Shu bilan birga, segmentning jami daromad va foydadagi ulushi, aktivlardan foydalanish samaradorligi hamda integral samaradorlik indeksi oshgan.

Muhokama

Segmentning kompaniya umumiy natijalariga hissasi ortgan bo‘lsa-da, kelgusida xarajatlar sig‘imini kamaytirish va daromad o‘sishini foyda o‘sishiga aylantirish ustuvor boshqaruv yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

2025-yilda “O‘zbekinvest” AJ hududiy segmentlari faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari [11]

Ko‘rsatkich	Andijon	Farg‘ona	Jizzax	Qoraqal-pog‘iston R.	Qashqa-daryo	Navoiy	Naman-gan	Samar-qand	Surxon-daryo	Sir-daryo	Toshkent sh.	Toshkent vil.	Buxoro	Xorazm
Segment daromadi, mln so‘m	17 463	15 000	8 046	7 253	10 000	9 000	10 500	12 000	9 000	7 500	79 256	31 666	41 770	24 765
Daromadning o‘sish sur’ati, %	118	116	115	112	114	113	117	120	115	111	161	122	125	119
Jami daromaddagi ulushi, %	6,17	5,30	2,84	2,56	3,53	3,18	3,71	4,24	3,18	2,65	27,98	11,18	14,75	8,74
Segment xarajatlari, mln so‘m	17 462	14 998	8 045	7 251	10 000	8 999	10 499	11 999	8 999	7 499	79 242	31 663	41 766	24 758
Xarajatlar sig‘imi, %	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Segment foydasi, mln so‘m	1,11	1,80	1,48	1,84	0,20	1,00	1,20	1,50	0,80	0,70	14,18	2,80	4,57	6,35
Foydaning o‘sish sur’ati, %	110	112	108	109	105	111	113	114	110	107	119	116	118	120
Segment foyda marjasi, %	0,006	0,012	0,018	0,025	0,002	0,011	0,011	0,013	0,009	0,009	0,018	0,009	0,011	0,026
Jami foydadagi ulushi, %	2,80	4,55	3,76	4,65	0,51	2,53	3,04	3,79	2,02	1,77	35,87	7,08	11,57	16,05
Segment aktivlari, mln so‘m	3 050	1 800	957	1 505	704	1 300	1 500	2 100	1 200	900	6 629	2 600	1 543	5 253
Jami aktivlardagi ulushi, %	9,82	5,80	3,08	4,85	2,27	4,19	4,83	6,77	3,87	2,90	21,35	8,38	4,97	16,92

Aktivlar rentabelligi (ROA), %	0,04	0,10	0,16	0,12	0,03	0,08	0,08	0,07	0,07	0,08	0,21	0,11	0,30	0,12
Aktivlar aylanuvchanligi, marta	5,73	8,33	8,41	4,82	14,20	6,92	7,00	5,71	7,50	8,33	11,96	12,18	27,07	4,71
Xarajatlar rentabelligi, %	0,006	0,012	0,018	0,025	0,002	0,011	0,011	0,013	0,009	0,009	0,018	0,009	0,011	0,026
Daromad–aktiv samaradorligi, %	573	833	841	482	1 420	692	700	571	750	833	1 196	1 218	2 707	471
Reja bajarilish darajasi, %	104	97	102	98	95	103	99	101	96	100	106	98	103	97
Rejadan mutlaq chetlanish, mln so'm	+699	−450	+161	−145	−500	+270	−105	+120	−360	0	+4 247	−633	+1 253	−743
Segment samaradorligi nisbati	0,29	0,78	1,22	0,96	0,22	0,60	0,63	0,56	0,52	0,61	1,68	0,85	2,33	0,95
Daromad samaradorligi nisbati	0,63	0,91	0,92	0,53	1,56	0,76	0,77	0,63	0,82	0,91	1,31	1,33	2,97	0,52
Integral samaradorlik indeksi, ball	64	68	70	66	66	67	69	70	67	65	93	78	89	73

Tahlil natijalariga ko‘ra, Toshkent shahar segmenti 79 256 mln so‘m daromad bilan jami segment daromadining 28 foizini va foydaning 36 foizini shakllantirib, yetakchi o‘rinni egallagan. Buxoro segmentining daromadi 41 770 mln so‘mni tashkil etib, jami daromaddagi ulushi 15 foiz, foydadagi ulushi 12 foiz bo‘lgan. Aktivlar aylanuvchanligi Buxoroda 27 marta, Qashqadaryoda 14 marta, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 12 martadan shakllangan. Integral samaradorlik indeksi bo‘yicha Toshkent shahri 93 ball, Buxoro 89 ball, Toshkent viloyati 78 ball va Xorazm 73 ball natija ko‘rsatgan. Natijalar segmentlar bo‘yicha resurslarni taqsimlashda daromad hajmi bilan birga foydalilik, aktivlardan foydalanish va reja bajarilishi ko‘rsatkichlarini kompleks hisobga olish hamda samaradorlik darajasiga qarab tabaqalashtirilgan boshqaruv choralarini qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari segmentar hisobot ma’lumotlari asosida samaradorlikni baholash segmentlar faoliyatini har tomonlama tahlil qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini berishini ko‘rsatdi. Bunda segment daromadi, xarajatlari va foydasi kabi mutlaq ko‘rsatkichlar bilan cheklanmasdan, foyda marjasi, aktivlar rentabelligi va aylanuvchanligi, reja bajarilishi, chetlanishlar hamda integral samaradorlik indeksidan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv segmentlarning kompaniya umumiy natijasiga qo‘shgan hissasi va resurslardan foydalanish samaradorligini qiyosiy baholash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, segmentlarning daromad hajmi yuqori bo‘lishi har doim ham ularning samaradorligi yuqori ekanligini anglatmaydi. Shu sababli boshqaruv qarorlarini segmentlarning daromadliligi, foydaliligi, xarajatlar sig‘imi, aktivlardan foydalanish darajasi va reja bajarilishini birgalikda hisobga olgan holda qabul qilish zarur. Taklif etilgan integral baholash yondashuvi yuqori, o‘rtacha va past samaradorlikka ega segmentlarni aniqlash, resurslarni oqilona taqsimlash, xarajatlarni maqbullashtirish hamda har bir segment uchun tabaqalashtirilgan boshqaruv choralarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Walther L. M. Reporting Techniques in Support of Managerial Decision Making: Segment Reporting. — Principles of Accounting.
2. Hinson L., Tucker J. W., Weng D. The Tradeoff Between Relevance and Comparability in Segment Reporting // Journal of Accounting Literature. — 2019. — Vol. 43. — P. 70–86. — DOI: 10.1016/j.acclit.2019.11.003.
3. Tucker J. W., Hinson L., Weng D. The Tradeoff Between Relevance and Comparability in Segment Reporting // Journal of Accounting Literature. — 2019. — Vol. 43. — P. 70–86.
4. Weng D., Hinson L., Tucker J. W. The Tradeoff Between Relevance and Comparability in Segment Reporting // Journal of Accounting Literature. — 2019. — Vol. 43. — P. 70–86.
5. Durney M. T., Gee K. H., Wiebe Z. Segment Profit/Loss and the Limitations of a “Management Approach” // Management Science. — 2025. — Vol. 71, No. 9. — P. 7474–7496. — DOI: 10.1287/mnsc.2023.01224.
6. Botosan C. A. et al. Segment reporting and the usefulness of disaggregated financial information for investment analysis. — Segment reporting research literature.
7. Hann R. N. et al. Segment profitability and information disclosure in diversified firms. — Segment reporting research literature.
8. Drury C. Management and Cost Accounting. — 11th ed. — Andover: Cengage Learning, 2021.
9. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard — Measures That Drive Performance // Harvard Business Review. — 1992. — Vol. 70, No. 1. — P. 71–79.
10. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. — Boston: Harvard Business School Press, 1996.
11. Uzbekinvest rasmiy web sayti. https://uzbekinvest.uz/audit-financial